


TERMIZ SHAHRIDA NIZOLI OILALARING MUAMMOLARI O'RGANILDI



TERMIZ SHAHRIDA NIZOLI OILALARING MUAMMOLARI O'RGANILDI

Kecha “Nurli kelajak” mahallasida Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev boshchiligida barcha sektor rahbarlari, jinoiy, fuqarolik va ma’muriy ishlari bo’yicha shahar sudining raislari, profilaktika inspektorlari, mahalla raislari ishtirokida muammoli va nizoli vaziyatdagi oilalar vakillari bilan suhbat o’tkazilib, ularni qiyab kelayotgan muammolari tinglandi.

Jarayonda ushbu oilalarda muammoli va nizoli holatlarning kelib chiqishiga sabab bo’layotgan psixologik, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy va iqtisodiy omillari o’rganilib, tegishli tartibda amaliy yordam va huquqiy tushuntirishlar berildi. E’tirof etish lozim, suhbat davomida hozirgi kunga qadar nizoli oilalarning ishi sudga yetib bormasdan ularning ijtimoiy-ma’naviy muhitini sog’lomlashtirish borasida mas’ul tashkilotlar bilan ijobiy natijalarga erishildi.

Uchrashuv davomida mas’ullar tomonidan jamoatchilik bilan hamkorlikdagi targ’ibot ishlarini kuchaytirish, fuqarolarni huquqiy ongini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirib borishga kelishib olindi. Shuningdek, mutasaddi rahbarlarga barcha turdagи jinoyatchilikni oldini olish yuzasidan tegishli topshiriq va ko’rsatmalar berildi.

















